

BADIY ADABIYOTDA ESTETIK IDEAL TUSHUNCHASI

Termiz davlat universiyeti

2-bosqich magistranti

Sohibova Maftuna Muhiddin qizi

maftunasohibova1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyotning, adabiyotshunoslikning boshqa fanlar, xususan, falsafa, estetika bilan aloqasi haqida so‘z yuritiladi. Badiiy adabiyotda estetik ideal muammosi va uning olimlar tomonidan o‘rganilishi haqida ma’lumotlar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, estetik ideal, Arastu, Vinkelman, go‘zallik, reallik, estetika, ijodkor estetik ideali.

Abstract: This article discusses the relationship of fiction and literary criticism with other disciplines, in particular philosophy and aesthetics. It contains information about the problem of the aesthetic ideal in fiction and its study by scientists.

Keywords: fiction, aesthetic ideal, Aristotle, Winckelmann, beauty, reality, aesthetics, creative aesthetic ideal.

Har bir fan boshqa fanlar bilan doimiy aloqada va uzviy bog‘langan. Adabiyot, adabiyotshunoslik ham fanning barcha tarmoqlari kabi boshqa fanlar bilan aloqada yashaydi va shu fanlar bilan birgalikda rivojlanadi. Bunday aloqa natijasida adabiyotshunoslik boshqa fanlardan nimanidir oladi, boshqa fanlarga nimanidir beradi. Adabiyotning fanlar bilan o‘zaro aloqasi haqida adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov ham quyidagi fikrlarni aytib o‘tgan. “Adabiyotshunoslik san’atning umumiyligi qonuniyatlarini o‘rganuvchi estetika fani bilan ham mustahkam aloqadadir. So‘z san’ati sifatida badiiy adabiyot san’atning umumiyligi qonuniyatlarini asosida yashashi, uning boshqa

san'at turlari bilan aloqada ekanligi har bir adabiyotshunosdan estetika fani yutuqlaridan xabardor bo'lishni taqozo etadi".¹

Falsafa insonni butunlay o'rgansa, estetik ideal uning bir qismini , ma'lum bir bo'lagini, ya'ni ma'naviyatdagi go'zallikka bo'lgan qarash, ma'naviy go'zallikka bo'lgan munosabatni o'rganadi. Shuning uchun ham qaysidir ma'noda san'atning xususan, adabiyotning estetik ideal bilan ajralmas bog'liqlik nuqtalari bor.

Estetik ideal atamasi dastlab I. I. Vinkelman, keyinchalik G. E. Lessing asarlarida qo'llanildi. Platon va Aristotel tushunchasiga ko'ra, ijodkor biror bir narsani tasvirlashda o'z tasavvuridan ortiqcha tasvirlay olmaydi, ya'ni o'z tafakkur va tasavvur darajasi yetganicha tasvirlaydi. Estetik ideal tushunchasi keyinchalik Uyg'onish davrining Leonardo da Vinchi, A. Dyurer, Torkvato Tasso, Mikelanjelo kabibi san'atkor va nazariyachilar tomonidan anchagina rijovlantirildi.² Ularning fikricha, san'at asaridagi reallik va ideallik o'rtaida o'zaro aloqa va shartlashish mavjud. Ya'ni reallik asosida yaratilayotgan obrazning ideal tasviri yuzaga keladi. Chunki ijodkor narsani tasvirlash jarayonida o'z fikrlarini ham qo'shamdi, ya'ni qanday edi-yu , qanday bo'lsihi kerakligini aks ettiradi.

Hayotimizda go'zallikni o'zida mujassam etgan har qanday san'at asari, jumladan, badiiy adabiyot ham butun koinot, insoniyat hayotida muhim ahamiyatga egadir. Biz bilgan, ko'rgan, orzu qilgan har qanday mukammallik go'zallik bilan chambarchas bog'langan. San'at va badiiy adabiyotda uchraydigan go'zallik va mukammallik esa estetik ideal bilan belgilanadi.

Badiiy adabiyotning asosi va mazmunini insoniyat tashkil qiladi, ya'ni badiiy adabiyot markazida inson omili turadi. Badiiy adabiyotdagi insonlarning taqdiri, ularning hayotida uchraydigan muammolarni hal qilishda har bir ijodkor o'z go'zallik talablari va qonunlariga binoan ish ko'radi.

Ijodkorning orzu, armon, g'oyalarini tashuvchi Ilm, fan, san'atning barcha turlari, xususan, adabiyotda ham ma'lum darajada belgilangan tartib qonun qoidalar bor. Ammo bu qonun qoidalar va tartiblarga bo'ysunmaydigan vaziyat va holatlar ham uchrab turadi.

Bunday o‘zgachaliklar har bir ijod ahlida o‘zgacha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Buni bitta nom bilan ijodkorning estetik ideali desak bo‘ladi. Estetik idealni har bir ijodkor o‘z xohish-istiklaridan kelib chiqib o‘z ijodida turli xil ko‘rinishda yuzaga chiqaradi.

Ijodkor o‘z idealidagi obrazni yaratibgina qolmay, bu obrazga o‘zining shaxsiy munosabatini ham bildiradi. Ya’ni shu obrazni tasdiqlaydi, yoki inkor etadi. Estetik ideal ijodkordan hamma vaqt anglab yetilgan hayotiy haqiqatning badiiy asar maqsadiga mos bo‘lishini talab qiladi.

Qadimgi Yunon san’atkorlari va faylsuflari qadimgi Sharq badiiy madaniyati merosiga tayangan holda o‘zlarining estetik g‘oyalar va qarashlarini ishlab chiqqanlar.

Estetik ideal haqida boshqa bir adabiyotda quyidagicha fikr bildirilgan.

Estetik ideal-bu grekcha “tasavvur”, “orzu” demakdir. Idealni asosan ijtimoiy ideal, axloqiy ideal va estetik idealga bo‘lish mumkin.

- Ijtimoiy ideal-biron bir ijtimoiy guruhning intilishlari va faoliyatining oliy maqsadi manfaatlariiga muvofiq keladigan tasavvur.

- Axloqiy ideal- axloqiy kamolot haqidagi tasavvurlardir, ya’ni o‘rtoqlarcha o‘zaro yordam, adolatparvarlik, ijtimoiy burchni yuksak darajada bajarish, haqqoniylilik, kamtarlik va shu kabi xislatlarni nazarda tutadi.3

- Estetik ideal-subyekt bilan obyekt, inson bilan ijtimoiy butunlikning tarixan eng to‘liq uzviy birligi bo‘lib, bu birliklar tub maqsadlar sifatidagi inson ijodiy kuchlarining erkin va har tomonlama rivojlanishida o‘z ifodasini topadi.

Estetik idealning janrlarda ifodalaniishi haqida Muhammadiyev N. o‘z fikrlarini quyidagicha ifodalagan: “Estetik ideal adabiyotning turli janrlarida turlicha ifodalananadi. Jumladan poeziyada ideal juda yorqin namoyon bo‘ladi. Shoir o‘z idealini, hissiy bayon orqali, muhabbatning go‘zalligini, hayot go‘zalligini tasvirlash orqali tasdiqlaydi. Shoir Abdulla Oripovning she’rlaridan birida shunday deyiladi:

Bu-chi ilg‘ayolmas aylanga toshga!

Kimdir u? Kimdir u?

Balki u sizdirsiz? Balki u boshqa...

Hayotning poyonsiz ummoni ichra,
Bor shunday g‘oliblar, temirlar hissiz...
kabi satrlarga duch kelamiz”.

Prozada esa idealning ifoda etilishi anchagina mushkulroq. Chunki muallif voqealar rivojiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashib ketolmaydi. Shuning uchun o‘z idealini obrazlarga, asarning badiiy to‘qimasiga singdirishi shart.

Shunday qilib estetik idealni har bir ijodkorning shaxsiyati, o‘z “men”ini ochib beruvchi kalit desak bo‘ladi. Estetik ideal naqat ijodkorlarga tegishli bir xususiyat, balki jamiyatdagi, atrofimizdagi barcha insonlarga xos xususiyat deb bilaman. Ijodkor idealidagi mukammal obrazni badiiy bo‘yoqlar yuzaga chiqaradi. Oddiy insonlar esa o‘qiyotgan kitoblaridan, ko‘rayotgan kinolaridan, tomosha qilayotgan san’at asarlaridan izlaydi. Hayotdagi har bir tirik jon borki, u mukammallikka, yetuklikka, ulug‘likka intilmasa.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2004. – 224 б.
2. Шиллер Ф. Статьи по эстетике. Художественная литература. –М.: 1957.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi
4. Muhammadiyev N. Estetik ideal va adabiyot.: o‘quv qo‘llanma. Toshkent.: 1973.32-bet.